

## TRIKOTAJ MATOLARINING TAHLILI

**Xomidov Voxidjon Obidovich**

Farg’ona politexnika instituti,  
t,f,f,d (PhD),

**Maxsudova Xilolaxon Baxtiyorjon qizi,**

Farg’ona politexnika instituti,  
M29-24 TMT guruh magistranti,

[maxsudovhilola8@gmail.com](mailto:maxsudovhilola8@gmail.com) +998 916803083

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada trikotaj matolarining turlari, xususiyatlari va farqlari tahlil qilindi. Maqolada trikotaj matolarining eng keng tarqalgan turlari – lastik, glad, xosilali glad, seпочka va ularning elastiklik, nafas olish, mustahkamlik va dizayn jihatidan qanday farq qilishi o‘rganildi. Har bir turdagi trikotaj matoning foydalanish sohalari ham ko‘rsatildi. Trikotaj matolarining turli xususiyatlarini taqqoslash orqali, ularning eng optimal qo‘llanilish joylari aniq ko‘rsatildi.

**Kalit so‘zlar:** Trikotaj matolar, elastiklik, lastik, glad, xosilali glad, seпочka, mustahkamlik, trikotaj matolarining farqlari, matolarni taqqoslash, trikotaj sanoati, dizayn xususiyatlari.

**Аннотация.** В данной статье анализируются типы, характеристики и различия трикотажных тканей. Рассматриваются наиболее распространенные виды трикотажных тканей, такие как резинка, гладь, узорная гладь, сепочка, а также их различия по эластичности, воздухопроницаемости, прочности и дизайну. Также указаны области применения каждой из типов трикотажных тканей. Сравнив различные характеристики трикотажных тканей, были четко определены наиболее оптимальные области их применения.

**Ключевые слова:** Трикотажные ткани, эластичность, резинка, гладь, узорная гладь, ажур, сепочка, прочность, различия трикотажных тканей, сравнение тканей, трикотажная промышленность, характеристики дизайна.

**Annotation.** This article analyzes the types, characteristics, and differences of knitted fabrics. The most common types of knitted fabrics, such as ribbed, plain, patterned plain, lace, and how they differ in terms of elasticity, breathability, durability, and design, are discussed. The areas of use for each type of knitted fabric

are also highlighted. By comparing the different characteristics of knitted fabrics, the most optimal application areas for each type are clearly defined.

**Keywords:** Knitted fabrics, elasticity, ribbed, plain, patterned plain, lace, durability, differences of knitted fabrics, fabric comparison, knitting industry, design characteristics.

**Kirish,** Respublikamizda to‘qimachilik va yengil sanoat rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratib berishga qodir tabiiy xomashyo resurslari mavjud. Ushbu resurslardan foydalanib ip, ipak va trikotaj matolaridan yuqori sifatli va raqobatbardosh tikuv va trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish davlatimiz iqtisodiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biridir. Trikotaj matolari bugungi kunda to‘qimachilik sanoatining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu matolar kiyim-kechak, sport kiyimlari va boshqa tekstil mahsulotlarining asosiy matolari sifatida keng qo‘llaniladi. Trikotaj matolarining xususiyatlarini o‘rganish, ularni to‘g‘ri tanlash va turli sohalarda samarali qo‘llashning ahamiyati zamonaviy to‘qimachilik sanoatida alohida o‘rin tutadi. Trikotaj matolarining elastiklik, mustahkamlik, o‘tkazuvchanlik, va boshqa fizik-mexanik xususiyatlari ularning dizaynini va ishlash qobiliyatini ta‘minlaydi. Bu matolar kundalik kiyim-kechakdan tortib, maxsus sport anjomlari, tibbiyot mahsulotlari va hatto sanoat sohasida ham keng qo‘llaniladi. Matolarni ishlab chiqarish jarayonida trikotaj texnologiyalarining alohida o‘rni bor. Trikotaj matolari, an‘anaviy to‘qimachilik matolaridan farqli o‘laroq, o‘zining elastikligi, yengilligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar matolarni keng ko‘lamda ishlatish imkoniyatini beradi, Misol uchun, lastik matolar elastikligi yuqori bo‘lgani uchun sport kiyimlari va yuqori harakat talab qiladigan kiyimlarda qo‘llaniladi, aksincha, glad matolarining mustahkamligi va tekis yuzasi ularni maxsus kiyimlar uchun to‘g‘ri keladi. Har bir matoning fizik-mexanik xususiyatlari elastiklik, mustahkamlik va boshqa parametrlari ularning qo‘llanilishi uchun eng maqbul sharoitlarni yaratadi. Maqolada lastik, glad, xosilali glad, sepochna kabi trikotaj matolarining har biri alohida tahlil qilindi.

**Asosiy qism,** Trikotaj iplarning tarkibiga, ishlatilishi, pardoqlash usuli va tuzilishiga qarab turlarga bo‘linadi. Tarkibiga qarab, paxta ipi, jun, ipak va kimyoviy tola aralashgan iplardan to‘qilgan xillarga bo‘linadi. Ishlatilishiga qarab, to‘qimachilik buyumlar yoki matolarga bo‘linadi. To‘qimachilik buyumlariga kostyum, jemper, kofta, palto, qo‘lqop, ko‘ylak, ichki kiyim, paypoq va boshqa

matolariga sun'iy mo'yna, sun'iy charm kiradi; bular texnik maqsadlarda va turli xil kiyimlar tayyorlashda ishlatiladi. Pardoqlash usuliga qarab, dag'al, oqartirilgan, tekis va bo'yalgan xillarga bo'linadi. To'qimaning asosiy fizik-mexanik xossalari uning tuzilishiga, halqalarning shakli va o'lchamiga, ipning yo'g'on va ingichkaligiga, qalinligi va pishikligiga bog'liq. Trikotaj halqalarining qanday hosil bo'lishiga qarab, ko'ndalang to'qilgan va bo'ylama tandadan to'qilgan turlarga bo'linadi. Ko'ndalang to'qilgan matodagi hamma halqalar qatori bitta ipning birin-ketin egilib bukilishidan hosil bo'ladi. Bo'ylama tandadan to'qilganida esa har bir xalqa alohida ipdan hosil bo'ladi, o'rilishi bir qavatli va ikki qavatli bo'lishi mumkin. Bir qavatli trikotajning o'ng tomoni bir tomonda, teskari tomoni boshqa tomonda joylashadi. Ikki qavatli trikotajda esa ikkala o'ng tomoni yoki ikkala teskari tomoni bir yoqda joylashgan bo'ladi. Ikki qavatli qalinroq, pishiqroq va og'irroq. Trikotaj o'rilish asosiy, xosilaviy va gulli o'rilishga bo'linadi. Asosiy o'rilishlar guruhiga bir xil halqa beradigan oddiy o'rilishlar kiradi. Bunday o'rilishlarga kulir to'qimasi, triko, zanjir, atlas misol bo'la oladi. Hosilaviy o'rilish asosiy o'rilishni o'zgartirish yo'li bilan hosil qilinadi. Bunday o'rilishlarga hosilaviy kulir to'qimasi, movut to'qimasi misol bo'ladi. Gulli o'rilishlar guruhiga asosiy o'rilishlar bazasida gul shakli hosil bo'ladigan o'rilishlar kiradi, bularni tayyorlash uchun mashinaga qo'shimcha mexanizm kiritiladi hamda hosil qilish jarayonini o'zgartirish yo'li bilan mato sirtida gul hosil qilinadi. Bunday o'rilishlarga pressli, arqoqli, jakkard, futer va boshqa gulli o'rilgan trikotajlar misol bo'ladi. Ushbu maqolada esa lastik, glad, xosilali glad, ajur, ananas, filey, kiper kabi trikotaj matolarining har birining o'ziga xos fizik mexanik xususiyatlari ko'rib chiqildi. Bu matolarning elastiklik darajasi, o'tkazuvchanlik xususiyatlari, mustahkamligi va dizayn jihatidan o'zaro farqlari batafsil tahlil qilindi.

**Lastik trikotaj mato:** Lastik trikotaj mato, ayniqsa elastikligi bilan ajralib turadi. Bu mato ikki tomonlama kengayib, qisqarishga moyil bo'lib, yuqori darajada qulaylik va yengillik ta'minlaydi. Lastik matolar, ko'pincha sport kiyimlari yoki jigarrang kiyimlarda ishlatiladi, chunki ular harakatsizlikni cheklamasdan kuchli elastiklikni ta'minlaydi. Elastikligi uning boshqa mato turlariga nisbatan yuqori bo'ladi.

**Glad trikotaj mato:** Shakli va katta kichikligi bir xil bo'lgan halqalardan tashkil topgan bir qavatli ko'ndalangiga to'qilgan trikotaj to'qimasi glad deb ataladi. Bu turdagi to'qimaning old tomonida asosan halqalar tayoqchalari ko'rinib turadi,



orqa tomonida esa igna va platina yoylari ko'rinib turadi. Glad to'qimasining kamchiligi oson yechiluvchanligi hisoblanadi. Uning yuza zichligi uni hosil qiluvchi halqa ipi uzunligiga, to'qimadagi halqalar zichligiga va iplarning chiziqli zichligiga bog'liq.

**Hosilali glad trikotaj mato:** Xosilali glad matolari, o'zining kuchli strukturasi ega bo'lib, mustahkam va elastik xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bu mato ko'pincha sport kiyimlari, plyaj kiyimlari va shuningdek, mebel to'qimachiligida ishlatiladi.

**Sepochka trikotaj mato:** Bo'ylamasiga to'qilgan bir qavatli to'qima bo'lib, uning halqalari bitta ipdan hosil bo'ladi va bitta halqalar ustunchasini tashkil qiladi. Odatda bir qavatli seepochkalar ro'mollar va sharflar uchlarida gajim sifatida, turli bog'ichlar va krujevalar hosil qilishda ishlatiladi. Bu turdagi to'qima buralmaydi, chunki har bir halqa tayoqchalarining egilgan qismlari protuyajkalar bilan muvozanatlashgan bo'lib, ularning buralishi teskari tomonga yo'nalgan bo'ladi. Sepochkaning bo'ylamasiga cho'ziluvchanligi bu seepochka to'qilgan iplarning elastikligiga bog'liq.

**Tahlillar va natijalar:** Trikotaj matolarining fizik mexanik xususiyatlarini taqqoslash orqali, har bir turdagi matolar o'zining maqsadiga mos ravishda eng yaxshi natijalarni beradi. Masalan, lastik matolar yuqori elastikligi bilan qulaylik ta'minlashda afzaldir, lekin glad matolar mustahkamligi va o'tkazuvchanlik xususiyatlari bilan ko'proq professional va formal kiyimlar uchun mos keladi. Sepochka matolari, estetik jihatdan bezakli naqshlar va ro'mollar va sharflar uchlarida gajim sifatida, turli bog'ichlar va krujevalar uchun mosdir.

-Shuningdek, har bir matoning mustahkamligi, elastikligi va o'tkazuvchanlik xususiyatlari ularning qo'llaniladigan sohalariga ta'sir qiladi. Trikotaj matolarining har bir turi, o'zining o'ziga xos fizik mexanik xususiyatlari bilan alohida o'rin tutadi.

**Xulosa,** Trikotaj matolarining turlari va xususiyatlari o'zaro farq qiladi, va har bir turi o'zining o'rni va foydalanuvchi ehtiyojlariga ko'ra tanlanadi. Yagona to'quv matolari oddiy va yengil bo'lsa, ikki tomonlama trikotaj matolari mustahkam va uzoq muddatli foydalanish uchun mosdir. Kovakli trikotaj matolar havo o'tkazuvchanlik xususiyatlari bilan ajralib turadi, bu ularni issiq havoda eng to'g'ri tanlov ekanini isbotlaydi. Shuning uchun, trikotaj matolarining har bir turi o'zining maxsus xususiyatlari va afzalliklariga ega, va ular kerakli sharoitlarda samarali qo'llaniladi. Ushbu maqolada trikotaj matolarining xususiyatlarini solishtirish orqali

ularning orasidagi farqlar yoritib berildi. Natijada esa mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun trikotaj matolarini turlarini va ularning qo‘llanilish soxalari uchun eng optimal variantlarni tanlash imkonyatini berdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bennet, D. “Textiles for Fashion and Interior Design”. London: Bastford Ltd. (1994).
2. Sultonov, U. “Matolarni ishlab chiqarish texnologiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston davlat “Turon” nashriyoti.
3. Muqimov, M, Ikromov, Sh. “Trikotaj to‘qish texnologiyasi”. Toshkent.



---

# Research Science and Innovation House